

**KORRUPTSIYAGA OID QILMISHLAR UCHUN JINOIY
JAVOBGARLIK BO‘YICHA XALQARO STANDARTLAR VA XORIJY
TAJRIBANING FALSAFIY-HUQUQIY TAHLILI**

Ismoilov Ixtiyorjon,
doktorant, Farg‘ona davlat universiteti,
O‘zbekiston, Farg‘ona sh.

Annotatsiya:

Korruptsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi, demokratik institutlarga putur etadi. Shu bilan birga, uning ta’siri ostida fuqarolarning ijtimoiyadolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo‘qoladi. Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. Bizning davlatimiz korruptsiyaning oldini olish va uning ildizlariga barham berish maqsadida ko‘pgina tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Kalit so‘zlar: jamiyat, adolat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, korruptsiya, korruptsiyaviy jinoyatlar, huquqiy madaniyat.

KIRISH

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va printsiplarini belgilashda bunday huquqbazarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minalash masalasi qat’iy hisobga olingan. Korruptsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo‘l urgan odam uchun ulug‘ narsalar, mo‘tabar tuyg‘ularning qadri yo‘qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o‘ylaydi. Ular iymon-e’tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo‘lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, yor-u birodarlarli, mahalla-ko‘yning yuzini erga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Qonunga ko‘ra, korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralalararo komissiyasi tashkil etildi. Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “korruptsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”[1]. Haqiqatdan ham, korruptsiyaviy jinoyatlar davlatning rivojlanishiga to‘sinqilik qilib, xalqning davlat organlariga nisbatan ishonchini susaytiradi[2].

Amalga oshirilgan islohotlar korruptsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta'sir qildi. Jumladan, 2017 yilda turli toifadagi 3013 nafar mansabdar shaxslarga nisbatan jami 2076 ta, 2018 yilda 2066 nafar shaxsga nisbatan 1469 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 1520 nafar shaxsga nisbatan 994 tani tashkil qildi. Mazkur jinoyat ishlari doirasida 2017 yilda 2881 nafar, 2018 yilda 1907 nafar, 2019 yilda esa 1339 nafar shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Mansabdar shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 2017 yilda 142 mlrd. 662 mln. so'm, 2018 yilda 559 mlrd. 174 mln. so'm, 2019 yilda esa 1 trln. 853 mlrd. so'm miqdorida moddiy zarar etkazilgan. SHuningdek, mazkur davrda O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rni muayyan darajada yaxshilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Transparency International" korruptsiyaga qarshi tashkilotining Korruptsiyani qabul qilish indeksi (Corruption Perception Index)da 2016 yilda 21 ball bilan 176 davlat ichida 151-o'rinni egallagan bo'lsa[3], 2019 yilnatijalariga ko'ra, 25 ball bilan 180 mamlakat ichida 153-o'ringa loyiq ko'rildi[4].

Amaldagi qonunchilikda korruptsiyaviy jinoyatlarga oid bir qator tushunchalarga nisbatan normativ-huquqiy ta'riflarning mayjud emasligi, korruptsiyaviy qilmishlarning jinoyat qonunchiligi bilan lozim darajada qamrab olinmaganligi kabi muammolarning mavjudligi korruptsiyaga qarshi kurashishdan ko'zlangan natijaga erishish va bu borada O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rmini yanada yaxshilashga to'siq bo'lmoqda. Shuningdek, korruptsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari ancha yillardan beri yetarli darajada tadqiq qilinmasdan kelinmoqda. Korruptsiyaviy jinoyatlarning umumiyligi va o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, ularni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar alohida jinoyatlar doirasida tadqiq etilganligiga qaramasdan, korruptsiyaviy jinoyatlarga oid qonunchilikni xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish masalalari maxsus tadqiqot predmeti sifatida kompleks tarzda o'rganilmagan[5].

Milliy jinoyat qonunchiligidagi korruptsiyaga oid normalarni tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqish, mazkur jinoyatlar elementlarining kompleksliligi va maqsadga muvofiqligini, sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaning milliy qonunchilikka etarli darajada joriy etilganligi kabi masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, korruptsiyaga oid samarali jinoyat qonunchiliginini yaratish asoslantirilgan va ilmiy xulosalar asosida tashkil etilganidagina kutilgan samarani beradi.

G'arb davlatlarida korruptsiya tushunchasiga nisbatan ta'rif berishda turlicha (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy) yondashuvlarni uchratishimiz mumkin. Karen Katzning fikricha, "korruptsiya deganda o'z vakolatlarini moddiy yoki nomoddiy naf ko'rinishidagi shaxsiy boylik ortirish maqsadida suiiste'mol qilish tushuniladi"[6].

Mazkur ta'rif o'rganilayotgan tushunchaning barcha elementlarini qamrab olmagan bo'lsa-da, uning eng asosiy jihatlarini o'zida aks ettirgan. Stenford huquq maktabi olimlari D.Mistree va A.Dibleylar mazkur tushunchaga nisbatan "shaxsning o'zi a'zosi bo'lgan tashkilotga nisbatan jamoatchilikning ishonchini pasaytirgan holda foyda olishni ko'zlashi natijasida sodir bo'ladigan voqe'a-hodisa" sifatida ta'rif berganlar[7]. Korruptsiya tushunchasiga nisbatan mazkur ta'rif juda ham keng ma'noda bo'lib, uning mazmuniga ko'ra aniq

doiradagi harakatlarga emas, balki shaxsning ruhiy kechinmalari ham korruptsiyaning bir qismi sifatida e'tirof etilishi lozim bo'ladi.

Amaldagi qonunchiligidan “korruptsiyaviy jinoyatlar” tushunchasiga ta’rif bermagan. Ammo, Qonunda shunga o‘xshash boshqa bir tushuncha – “korruptsiyaga oid huquqbuzarlik” tushunchasiga ta’rif berilib, unga ko‘ra korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish korruptsiyaga oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi[8].

Yuridik adabiyotlarda “korruptsiyaviy jinoyatlar” tushunchasiga nisbatan turliha yondashuvlar mavjudligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, S.K.Iliyning fikricha, mazkur turdagi jinoyatlar sifatida jismoniy yoki yuridik shaxslarning o‘z xizmat mavqeini suiiste’mol qilish yoxud o‘z vakolatlari va majburiyatlarini bajarmasligi orqali qasddan sodir etilgan harakati yoki harakatsizligi tushunilishi lozim[9].

Milliy qonunchiligidan “korruptsiyaviy jinoyatlar” tushunchasining mazmuni boshqa atamalar, jumladan, “korruptsiya” va “korruptsiyaga oid huquqbuzarlik” tushunchalariga rasmiy ta’rif berish orqali olib berilgan. Biroq, amaldagi jinoyat qonunchiligidan korruptsiyaviy jinoyatlarning aniq doirasini mavjud emas. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, korruptsiyaviy jinoyatlar – bu mansabdor shaxs yoki xizmatchining o‘ziga ishonib topshirilgan vakolatlari yohud mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning moddiy va nomoddiy naf ko‘rishi uchun g‘arazli maqsadlarda foydalanishidan, shuningdek ularni ushbu maqsadlarda o‘ziga og‘dirishdan iborat bo‘lgan jinoyatlardir.

Korruptsiya tushunchasini ta’riflashga nisbatan yuqoridagicha yondashuvlar mazkur tushunchaning quyidagi jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

Birinchidan, korruptsiyaga oid jinoyatlar tegishlicha vakolatga ega bo‘lgan shaxslar tomonidangina emas, balki bunday g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar natijasida naf ko‘rayotgan boshqa shaxslarning qilmishlarini ham nazarda tutadi.

Ikkinchidan, mazkur turdagi jinoyatlar o‘ziga topshirilgan vakolatlarning qonunga xilof ravishda va g‘arazli niyatlarda suiiste’mol qilinishi orqali sodir etiladi.

Uchinchidan, korruptsiyaviy jinoyatlardan olinadigan foya moddiy va nomoddiy ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, bu turdagi qilmishlar faqatgina uni sodir etayotgan shaxsning o‘z manfaatlarini ko‘zlab emas, balki boshqa shaxslar manfaati yo‘lida ham sodir etiladi.

Korruptsiya – bu yagona tarkibga ega bo‘lgan alohida jinoyat emas. Jinoyat qonunchiligi korruptsiya uchun emas, balki korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Bu esa, korruptsiyaning bir qancha jinoyatlar yig‘indisi ekanligini anglatadi.

Mazkur qarashni bir qator xorijiy olimlar ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Jumladan, I.I.Karpetsning ta’kidlashicha, “jahondagi qonunlarning birortasida “korruptsiya” tushunchasi jinoyat tarkibi sifatida tilga olinmaydi, zero u jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, balki jinoyatchilik kabi, boshqa ko‘pgina ijtimoiy hodisalar kabi ijtimoiy hodisadir”[10]. Jinoyat tarkibi elementlaridan yana biri – bu jinoyatning ob’ektiv tomonidir. Jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyotida bu masalaga alohida e’tibor berilishining asosiy sababi, jinoyat tarkibi ob’ektiv tomonini to‘g‘ri aniqlash, qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish,

o‘xshash jinoyatlarni bir-biridan, jinoiy qilmishni ma’muriy yoki intizomiy huquqbuzarlikdan farqlash imkonini beradi.

Korruptsiyaga oid jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarning legallashtirish jinoyati ob’ektiv tomondan mulk (pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk) mazkur turdag‘i jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliliginini yashirish yoxud sir saqlashda ifodalanadi.

Ayrim korruptsiyaviy jinoyatlar, jumladan vakolatni suiiste’mol qilishga oid jinoyatlarda qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishning mavjud bo‘lishi talab qilinadi. Bunda, ijtimoiy xavfli zararning kelib chiqishi sodir etilgan qilmishning qonuniy davomi bo‘lishi lozim. Shaxsning xohishidan tashqari ayrim sabablarga ko‘ra vujudga kelgan tasodifiy oqibatni shaxsning aybiga kiritib bo‘lmaydi. Mansab vakolatini suiiste’mol qilish va undan kelib chiqqan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishgina bunday asosni tashkil qiladi[11].

Sub’yektiiv tomoniga ko‘ra korruptsiyaviy jinoyatlarning barchasi to‘g‘ri qasddan sodir etiladi. Umuman olganda, jinoyat huquqi nazariyasida mazkur masalada tortishuvlar deyarli mavjud emas[12]. Shuningdek, ayrim korruptsiyaviy jinoyatlarning, shu jumladan, mansab soxtakorligining sub’yektiiv tomoni zaruriy belgisini “g‘arazgo‘ylik yoki boshqa manfaatlarni ko‘zlab” sodir etish tashkil etadi. Ushbu element mavjud bo‘limganda, basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa, qilmish jinoiy deb topilmaydi. Korruptsiyaviy jinoyatlarning sub’yekti jinoyat qonunida belgilangan yoshga etgan, aqli raso, korruptsiya bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan har qanday jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Jinoyat huquqi nazariyasida aqli raso shaxslargina jinoiy javobgar deb topiladi. Zotan, aqli rasolik ayb va javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi[13].

Shu tariqa korruptsiyaviy jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifiga yakun yasar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- korruptsiyaviy qilmishlar davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog‘liq davlat apparatining normal faoliyatini ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlар va bu munosabatlarda ayrim fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladi;
- hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish, mansabdor shaxs tomonidan o‘z mansab vakolatlaridan davlat manfaatlariga zid ravishda foydalanish deyarli barcha korruptsiyaviy jinoyatlar ob’ektiv tomonining asosiy belgisi hisoblanadi;
- barcha korruptsiyaviy jinoyatlarning sub’yektiiv tomoni to‘g‘ri qasdning, aksariyat jinoyatlar g‘arazgo‘ylik yoki boshqa manfaatdorlikning mavjudligi bilan tavsiflanadi;
- ayrim korruptsiyaviy jinoyatlarning zaruriy belgisi bo‘lgan “jiddiy ziyon” tushunchasi aynan qanday oqibatlarni qamrab olishi haqida rasmiy izohning mavjud emasligining o‘ziyoq korruptsiyaviy xavfni yuzaga keltirishi mumkin.

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini belgilash, shuningdek, korruptsiyaga oid jinoyat qonunchiliginini ishlab chiqishda eng asosiy vazifalardan biri – bu xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishdir. Zero, sohaga oid

xalqaro standartlar ko‘plab rivojlangan davlatlarning tajribalariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan printsiplariga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning implementatsiya qilinishi qonunchilikning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Korruptsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bo‘yicha xalqaro standartlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Yevropa Kengashi kabi universal va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan[14]. Jumladan, BMTning 2003 yildagi Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi, 1996 yildagi Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro yurish-turish kodeksi, 2000 yildagi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi, 2001 yildagi “Korruptsiyaga qarshi samarali xalqaro-huquqiy hujjat” nomli 55/61-tonli rezolyutsiyasi, 2006 yildagi Sudyalarning xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo‘yicha konvensiyasi normalari misolida korruptsiyaviy qilmishlarni kriminalizatsiya qilish masalalarini ko‘rib chiqamiz.

BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi sohaga oid eng asosiy hujjatdir. IHHT Konvensiyasida faqatgina xalqaro tashkilot yoki xorijiy davlat mansabdor shaxsining aktiv poraxo‘rligi hamda ushbu turdagи jinoyatlarni yashirish yoki ular natijasida topilgan daromadlarni legalizatsiya qilish uchun jinoiy javobgarlik masalalari bilan chegaralangan bo‘lsa, BMT Konvensiyada korruptsiyaviy jinoyatlarning kriminalizatsiya qilinishi masalalariganisbatan kengroq yondashilgan[15]. Zero, BMT Konvensiyasining 3-bobi (“Jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati”) 15-25-moddalarida korruptsiyaviy jinoyatlarni kriminalizatsiya qilishga oid standartlar belgilangan bo‘lib, ularni ham o‘z ichida ikki qismga ajratadi: ishtirokchi-Davlatlar tomonidan kriminalizatsiya qilinishi, ya’ni jinoyat deb e’tirof etilishi shart bo‘lgan va ixtiyoriy bo‘lgan jinoyatlar[16].

Kriminalizatsiya qilinishi shart bo‘lgan jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

- davlat mansabdor shaxslarining poraxo‘rligi (15-modda);
- xorijiy davlat mansabdor shaxslariga va xalqaro ommaviy tashkilotlarning mansabdor shaxslariga pora berish (16-modda 1-qismi);
- davlat mansabdor shaxsi tomonidan mol-mulkning talon-toroj qilinishi, noqonuniy o‘zlashtirilishi yoki ko‘zda tutilmagan maqsadlarda ishlatalishi (17-modda);
- jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish (23-modda);
- odil sudlovning amalga oshirilishiga to‘sinqinlik qilish (25-modda).

Haqiqatdan ham, yuqorida jinoyatlarning kriminalizatsiya qilinishi korruptsiyaga qarshi kurashda samarali global hamkorlikni amalga oshirishning eng muhim va asosiy omili va shu sababli, ularning kriminalizatsiya qilinishi majburiy etib belgilangan. Konvensiya poraxo‘rlik jinoyatlarini sub‘yektiga ko‘ra ikkiga ajratib, shu orqali milliy mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi hamda xorijiy davlat mansabdor shaxslari yoki xalqaro ommaviy tashkilotlarning mansabdor shaxslarining poraxo‘rligi jinoyatlarini bir-biridan farqlaydi. Jumladan, Konvensiyaning 15-moddasida milliy mansabdor shaxslarning aktiv va passiv poraxo‘rligiga oid normalar belgilangan. Uning mazmuniga ko‘ra: aktiv poraxo‘rlik – bu davlat mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsnинг o‘zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o‘z

lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biror harakatni amalga oshirishi yoki harakatsizligi maqsadida, biror noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etishdir.

Ko'rib turganimizdek, Konventsiya ishtirokchi-Davlatlardan "pora berish" bilan birgalikda porani "taklif qilish" yoki "va'da qilish" uchun ham jinoiy javobgarlikni belgilash lozimligini nazarda tutadi. Bunday normalar esa, xalqaro hamjamiyatning yuqoridagi har uchala turdag'i qilmishni zararli va jazoga sazovor, deya hisoblash lozimligi haqidagi nuqtai nazarini o'zida aks ettiradi. Albatta, pora berish, pora taklif qilish va pora berishni va'da qilish bir-biridan farq qiladi. Pora haqidagi taklif pora beruvchi porani berishga tayyor ekanligini ma'lum qilganida yuzaga keladi. Pora berishni vada qilish esa, pora oluvchi bilan bu haqda kelishish orqali vujudga kelib, bunda pora oluvchi pora beruvchining bu haqdagi taklifini qabul qilishi yoki pora beruvchi pora oluvchining pora berish haqidagi taklifini qabul qilishi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Pora berish harakati pora predmeti pora oluvchiga o'tishi orqali sodir etiladi[17].

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, milliy qonunchiligidan farqli ravishda, Konventsiya pora berishni so'rash, pora berishni va'da qilish hamda pora taklif qilish kabi harakatlar sodir etilganda, pora oluvchi va pora beruvchi o'rtasida kelishuv mavjudligi yogi mavjud emasligidan qat'i nazar, ularni tamomlangan jinoyat deb topishni nazarda tutadi.

BMTning tushuntirishlariga ko'ra, shaxsni aktiv yoki passiv poraxo'rlik jinoyatlari bilan ayplashda tegishli afzalliklarning bevosita hamda darhol taqdim qilinishi kabi zaruriy elementlar talab etilmaydi. Afzalliklarning va'da qilinishi, taklif qilinishi, vositachi orqali berilishi yoki pora oluvchiga yaqin bo'lgan boshqa bir shaxs yoxud tashkilotga taqdim qilinishi holatlarini ham poraxo'rlik jinoyatlari sifatida baholash va jinoyat qonunchiligi bilan qamrab olish lozim. Bunda, eng asosiy talablardan biri – bu yuqoridagi xatti-harakatlarning mansab lavozimi yoki xizmat vazifasi bilan bog'liq holda, shuningdek qasddan sodir etilishidir[18].

BMT Konventsiyasining 16-moddasida xorijiy davlat yoki xalqaro tashkilot mansabdor shaxsining poraxo'rligiga oid normalar belgilangan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra, xorijiy davlatning yoki xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs xalqaro ishlarni yuritish yuzasidan tijorat yoki boshqa noqonuniy afzallikka ega bo'lish uchun o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biror harakatni amalga oshirishi yoki harakatsizligi maqsadida biror afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etishi yoxud yuqorida ko'rsatib o'tilgan mansabdor shaxsning shu kabi biror afzallikni qabul qilishi, so'rashi yoki taklifni qabul qilishi, qachonki ular qasddan sodir etilganda, korruptsiyaviy jinoyat sifatida e'tirof etiladi[19].

Xorijiy davlat yoki xalqaro tashkilot mansabdor shaxsining poraxo'rliги jinoyatlarini milliy mansabdor shaxsning poraxo'rliги jinoyati bilan solishtirganda, ularning har ikkalasi ham qariyb bir xil elementlarni o'z ichiga oladi. Farqli tomoni shundaki, ushbu turdag'i jinoyatlarning sub'ekti faqatgina xorijiy davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslari bo'lishi mumkin. Boshqa bir farqi, ushbu turdag'i jinoyatni sodir etishga qaratilgan xatti-harakatlar xalqaro darajadagi yordam (afzallik) berish bilan bog'liq holda bo'lishi lozim[20].

XULOSA

Tadqiqotchilar korruptsiyaning asosiy sabablar sifatida to‘rtta omilni ko‘rsatadilar.

Birinchisi - iqtisodiy sabablar. Korruptsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma’muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqeい baland bo‘lgan davlat sharoitida rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki taqiqlash vakolati korruptsiyaga zamin yaratadi. Shu bilan bog‘liq holda, yirik mablag‘larga ega bo‘lgan ayrim ishbilarmonlar o‘z daromadlarini ko‘paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo‘lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o‘z ixtiyorlariga bo‘ysundirishga intiladilar.

Ikkinchisi - huquqiy sabablar. Korruptsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liqdir. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi - institutsional sabablar bo‘lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida, hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan xoliligi kiradi.

To‘rtinchisi - ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma’naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillardir.

Xulosa shundaki, korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog‘lom yashashida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// [Elektron manba].<https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Страгетические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21.
3. Corruption perceptions index 2016 // [Electronic resource] URL: https://images.transparencycdn.org/images/2016_CPIReport_EN.pdf
4. CPI 2019 Global Highlights // [Electronic resource] URL: <https://www.transparency.org/cpi2019?news/feature/cpi-2019>
5. Шамсутдинов Б.С.Коррупцияйий жинояллар учун жавобгарлик. Монография // Масъул мухаррир: Д.Б.Базарова, ю.ф.н., профессор в.б. – Т.: Тошкент давлат юридик университети, 2020. – Б.6.
6. Katz, Karen, Here Comes the Bribe: Canada’s efforts to Combat Corruption in International Business, 69 Adv. 501 (2011).
7. Dinsha Mistree and Arjuna Dibley, Corruption and the Paradox of Transparency, Working Paper 03-2018, April 18, 2018.
8. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ти ЎРҚ-419-сонли Конуни // [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>

9. Илий С. К. Административные правонарушения коррупционной направленности // Административное и муниципальное право. 2015. № 5. С.462.
10. Карпец И.И. Организованная преступность как социальная и юридическая проблема, ее тенденции и причины. Организованная преступность-2. / Под ред. А.ИДолговой, С.В.Дьякива. – М., 1993. – С.13-15.
11. Жиноят хуқуқи. Умумий қисм. Дарслик. / М.А.Абдухоликов, Б.Д.Ахраров ва бошқ. М.Усмоналиев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 1998. – Б. 77-78
12. Купратая А. В. Понятие и виды коррупционных правонарушений // Актуальные проблемы права, эко-номики и управления. 2016. № 12. С.133.
13. Абдурасулова Қ.Р. Жиноятнинг маҳсус субъекти. Ўқув қўлланма. - Тошкент: ТДЮИ, 2005. – Б. 6.
14. Corruption: A Glossary of International Criminal Standards // [Электрон манба]. URL: <https://www.oecd.org/daf/anti-bribery/41194428.pdf>
15. Конвенция о борьбе с дачей взяток иностранным государственным должностным лицам при осуществлении международных деловых операций (Принята Конференцией полномочных представителей стран -членов ОЭСР 21 ноября 1997 года) // [Электрон манба]. URL: <http://docs.cntd.ru/document/901934989>
16. Legislative guide for the implementation of the United Nations Convention against Corruption (New York, 2006), pp. 76-77.
17. Legislative guide for the implementation of the United Nations Convention against Corruption (New York, 2006), p. 83.
18. Legislative guide for the implementation of the United Nations Convention against Corruption (New York, 2006), p. 83-84.
19. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (Принята резолюцией 58/4 Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 года) // [Электрон манба]. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml
20. Legislative guide for the implementation of the United Nations Convention against Corruption (New York, 2006), p. 85-86.
21. Khomidovich, B. A. (2023). DEVELOPMENT OF PRIVATE PROPERTY AND BUSINESS. *World Bulletin of Management and Law*, 18, 105-107.
22. Боротов, А. Х. (2021). ХУСУСИЙ МУЛК ҲУҚУҚИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ШАРТЛАРИ: DE YURE/DE FACTO. *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 6(5).
23. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
24. Ikhtiyor, I. (2021). Issues of Improving the Principle of Humanity in the Criminal and Penalty System. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(12), 56-59.
25. Ismoilov, I. (2022). ABOLITION OF THE DEATH PENALTY IS A SIGN OF A CIVILIZED DEMOCRATIC STATE. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 795-799.

26. Azamjonovich, I. I. (2022). CRIME AND PUNISHMENT SOCIAL PHILOSOPHICAL FEATURES OF INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCES. *Conferencea*, 407-409.
27. A'zamjonovich, I. I. (2022). JINOYAT VA JAZO: XALQARO VA MILLIY TAJRIBALARING IJTIMOIY FALSAFIY XUSUSIYATLARI. *ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR*, 160-161.